



# “Involta” Ilmiy Jurnali

Vebsayt: <https://involta.uz/>

## TA’LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA O‘QUVCHILARNING AXBOROTLAR BILAN ISHLASH KOMPITENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

**J. Muhammadiyev**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institut huzuridagi aniq va tabiiy fanlarga ixtisoslashtirilgan  
maktabning matematika fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘quvchilarda internet manbalaridan foydalanishni  
o‘rgatish orqali ularda axborotlar bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish,  
o‘qituvchilarning keriativ pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari haqida  
fikr yuritiladi.

**Kalit so’zlar:** ta’lim tizimi; internet manbalari; dars tashkil etish; internet havfsizligi  
internet tarmog`idan; tayanch kompetensiyalar; axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi;  
yangi texnologiyalar; PISA, TIMSS va PIRLS xalqaro baholash tizimi.

«Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun, «Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy  
tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi  
Prezidentining 2020 - yil 7 - maydagi PQ-4708- qarori, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston  
Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi,  
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-apreldagi “Prezident ta’lim

muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan mакtablar tarmog'ini kengaytirish to‘g’risida”gi № ПФ-106 sonli Farmoni va shu kabi huquqiy hujjatlarda ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishida «ixtisoslashtirilgan maktablar, shuningdek, umumiyo‘rta ta’lim sifatini tubdan oshirish, ... matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo‘lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o‘rganish» Respublikamizda ta’lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi tasdiqlandi. Yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbus amaliyatga tatbiq etilmoqda, umumiyo‘rta ta’limning kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta’lim standartlari hamda fan o‘quv dasturlari ishlab chiqildi, ta’lim sifatini baholash bo‘yicha PISA, TIMSS va PIRLS xalqaro tadqiqotlarda ishtirot etishning me’yoriy asoslari yaratildi va PISA, xalqaro baholash tizimida kuchli 30 talikka kiruvchi mamlakatlar qatoridan o’rin olish vazifalari belgilib berilgan.

Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq. Ta’lim texnologiyasi (natija sifatida) didaktik jarayonning ilmiy loyihasi (tasnifi, modeli)dan iborat bo‘lib, uning qayta tiklanishi pedagogik amallarning muvaffaqiyatli amalga oshishini ta’minlaydi. Pedagogika fanini o‘qitish jarayoni, o‘quvchilarning bilish, ularning ijodiy faoliyatini faollashtirishning didaktik sharoitlari va zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarga yo‘naltirilganligi hisobga olinsa, pedagogning texnologik darajadagi faoliyatining mezonlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- aniq berilgan maqsadning mavjudligi, ya’ni asosiy tushunchalar, bu maqsadga erishish usullari kabi hisoblanishi;
- mavzuni o‘zlashtirishning yetarlicha qat’iy ketma-ketligi, mantiqiy, ma’lum bosqichlarning mavjudligi;
- o‘rganilayotgan mavzuning mazmunini bilish;
- o‘quv jarayonining natijaviyligi nuqtai nazaridan, o‘qituvchining eng optimal o‘qitish usullaridan foydalanish;

- o‘quv jarayonini modernizatsiyalashtirish jarayonida ishtirokchilarning o‘zaro ishslash usullarini ko‘rsatish;
- o‘qituvchi va o‘quvchilarning shaxsiy vazifalarini amalga oshirishlariga asoslangan faoliyatning motivatsiyali asoslanishi (erkin, kreativ, musobaqalashish, hayotiy va kasbiy ma’no, faoliyat);
- o‘qituvchining qoidaviy (algoritmik) va ijodiy faoliyati chegaralarini belgilash, yagona qoidalardan ruxsat etiladigan chetga chiqishlarining ko‘rsatilishi.

Yuqorida sanab o‘tilganlar o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini faollashtirishning didaktik sharoitlari va texnologiyasi shakllanganlik baholari mezonlarini ishlab chiqishda asos bo‘lib xizmat qiladi. Hozirgi davrgacha bo‘lgan an’anaviy ta’lim — XVII asrlardagi didaktik tamoyillar asosida shakllanib, hozirda jahondagi umumta’lim maktablarida eng ko‘p qo‘llanilayotgan sinf-dars tizimidan iborat edi. Bugungi kunda zamonaviy axborot va kommunikatsiya hamda pedagogik texnologiyalar, asosan, shu tizimni turli yo‘nalishlarda takomillashtirish, modernizatsiyalash maqsadlarida yaratilib, hozirda quyidagi yo‘nalishlarda rivojlanmoqda:

- pedagogik jarayonni takomillashtirish, uni o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirishga asoslangan texnologiyalar;
- o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish asosidagi AKT va pedagogik texnologiyalar, jumladan, mu-ammoli ta’lim, dars mavzusiga mos an’anaviy hamda kompyuter o‘yinlari va boshqalar;
- o‘quv materialini didaktik jihatdan takomillashtirish va qayta ishlab chiqarishga asoslangan pedagogik va AKT texnologiyalari: Bu texnologiyalar o‘rgatilayotgan bilimlarning didaktik tizimi chuqur mazmunga ega bo‘lishi, bilimlarga chuqur, tizimli nuqtai nazardan yondashuv, o‘quvchilarga AKT vositasida bilimlarni egallashning maqsadga muvofiq yo‘llarini o‘rganish kabi tamoyillarga asoslanadi;
- o‘quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil etishga asoslangan pedagogik texnologiyalar. Bu texnologiyalarga tabaqlashtirilgan, individuallashtirilgan,

dasturlashtirilgan ta’lim texnologiyalari — ta’limning jamoa usuli, guruhli, kompyuterli ta’lim texnologiyalari va boshqalar.

Bundan tashqari, o’qitishni yanada samarali bo‘lishiga xizmat qiluvchi pedagogik texnologiyalardan tabiatga muvofiqlashtirilgan, rivojlantiruvchi ta’lim, xususiy (o‘quv fanlari), al’ternativ hamda AKT hamda mualiflik pedagogik texnologiyalardan foydalanilmoqda. Shuningdek, hozirda pedagogik texnologiyalarning boshqa yo‘nalishlari ham mavjud bo‘lib ulardan asosiyлари emperik, kognitiv, evristik, kreativ, inversion, integrativ, adaptiv, inklyuziv va boshqalar.

Ma’lumki, AKT ikki turdagи: axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining muvofiqlashuvidan tashkil topadi. Axborot texnologiyasi — ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan axborotni saqlash, qayta ishlash, uzatish va ifodalash metodlari, usul va vositalari majmuidir. Hozirgi davrda mazkur metod, usul va vositalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri kompyuter, kompyuter texnologiyalari bilan bog‘liq.

Kommunikatsiya texnologiyalari esa inson bilan tashqi olam ta’siridagi metodlar, usul va vositalarni belgilaydi. Mazkur kommunikatsiyalarda kompyuter o‘z o‘rniga ega bo‘lib, kommunikatsiya ob’ektlari o‘zaro ta’sirida qulay, individual, ko‘p turli, yuqori intellektuallilikni ta’minlaydi. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan uyg‘un holda foydalanishdan maqsad shaxsning axborot jamiyatiga moslashuvidan iborat.

AKT insonning nafaqat kasbiy faoliyati, balki kundalik hayotining asosiy vositasiga aylanib bormoqda. Pedagogik va AKT texnologiyalarining asosiy yo‘nalishlari hozirgi davrda ta’limni turli yo‘nalishlarida takomillashtirishdan iborat. Turli fan o‘qituvchilarini tomonidan har bir o‘quv fanining asosiy xususiyati, mazmun-mohiyati, amaliy, nazariy qismlarining nisbatga muvofiq ravishda eng qulay pedagogik texnologiyalarning empirik, kognitiv, evristik, kreativ, inversion, adaptiv, inklyuziv va boshqa yo‘nalishlarni to‘g‘ri tanlash jiddiy ahamiyatga ega. Umuman olganda, texnologiya universal xususiyatga ega bo‘lib, uning har bir mutaxassis tomonidan amalga oshirilishi va kutilgan maqsadga erishish talab etiladi. Shu nuqtaiy nazaridan, texnologiyalarning asosiy mezonlarini quyidagicha:

- Ma’lum ilmiy asosga, konsepsiyaга tayanish.

- Tizimlilik, o‘quv-tarbiya jarayoni va uning qismlarining o‘zaro mantiqiy bog‘liqligi.
- Samaradorligi, ta’lim standartlariga erishishni kafolatlash, sarflash talab qilinadigan vaqt, kuch va vositalarning me’yor darajasida ekanligi.
- Bu texnologiyalarning boshqalar tomonidan qayta amalga oshirish mumkinligi bilan belgilash mumkin.

Ushbu jarayonda ishtirok etuvchi o‘qituvchilar va o‘quvchilar yuqorida bildirilgan texnologiyalarga amal qilgandagina ta’lim texnologiyalarining samaradorligi oshadi. Shunday qilib, o‘quvchilarning bilish ijodiy faollashtirishning didaktik sharoitlari pedagogik o‘qitish texnologiyasi doirasida nazariy bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni, o‘quv fani loyihasini yaratilishi va amalga oshirilishi sharoitda ro‘yobga chiqishi mumkin. O‘quvchilarning bilish ijodiy faoliyatini faollashtirishning didaktik sharoitlari va texnologiyasi maqsadlariga erishish vositasi bo‘ladi. O‘quvchi ta’limiy dasturning barcha bo‘limlari faoliyatining bilimlari va usullarining kasbiy vazifalarini hal etish vositasiga aylantirish texnologiyasiga ega bo‘ladi. Shunday ekan, texnologik yondashuv ta’lim sifatini oshirish, uning mazmunini takomillashtirish (modernizatsiyalash) va buning natijasi sifatida o‘quvchilarning bilish, ijodiy faoliyatini faollashtirishning didaktik sharoitlari va texnologiyasi samaradorligini oshirishning sharti bo‘lib qoladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. «Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash — mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti» mavzusida xalqaro konferensiya materiallari. Toshkent — 2012 yil, 16–17 fevral.
2. B. Ziyomuhammadov, M. Tojiyev. Pedagogik texnologiya zamонавиyo o‘zbek milliy modeli. Toshkent — 2009-yil.
3. Milliy g‘oya: Targ‘ibot texnologiyalari va lug‘ati. Toshkent.: «Akademiya» nashriyoti — 2007-yil.